



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlandi”
Rektor M.T.Xodjiyev
“29”  2024-yil
№ 

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“SHE’RSHUNOSLIK ASOSLARI”
FANI
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar
Ta’lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Guliston – 2024

Fanning nomi	She'rshunoslik asoslari
Fan/modul kodi	ShA2606
Fan/modul turi	Tanlov
O'quv yili	2026/2027
Fan semestri	6
Ta'lim tili/turi	O'zbek/kunduzgi
Fanga ajratilgan soat/kredit	180/6
Auditoriya soat/kredit	72
Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat/kredit	108

I. FANNING MAZMUNI

Mazkur fan universitetning kunduzgi bo'lim filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabalarining "She'rshunoslik asoslari" fani bo'yicha olib boriladigan mustaqil ishlari, amaliy mashg'ulotlari, og'zaki so'rov va boshqa mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishida yo'l-yo'riqlar ko'rsatishga mo'ljallangan. Unda muhim ba'zi metodik ko'rsatmalar bilan birga ana shu masalalarni mukammal o'rganishda yordam beradigan manbalardan parchalar keltiriladi.

"She'rshunoslik asoslari" fani she'riy asarlarni tahlil qila olish malakasini hosil qilishga, She'rshunoslik asoslari tabiatini matnlar asosida o'rganish jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

1.1. Fanni o'qitishdan maqsad – Kursning maqsadi: She'riyatni aslicha, ya'ni asrlardan beri hosil bo'lgan tajribalar asosida inson ruhiy olamining badiiy-nazmiy tarixi sifatida o'rganish va talqin qilish.

1.2. Fanning vazifalari:

- she'rni poetik jihatdan so'z san'ati hodisasi sifatida tahlil va talqin qilish;
- She'rshunoslik asoslari taraqqiyotini tavsiflash;
- poetik nutqni tavsiflash;
- poetik ko'chimlar, poetik sintaksisni o'rganish;
- she'riy san'atlarni tahlil qilish;
- musammata poetikasi, kichik lirik janrlar poetikasi kabilarni atroflicha o'rganishdan iborat.

II. ASOSIY NAZARIY QISM

((Ma'ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta'lim mavzulari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Modul nomi	Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan mavzular	Amaliy mashg'ulot bo'yicha mavzulari	Seminar mashg'ulot bo'yicha mavzulari	Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari
1-mavzu. She'r ilmi ta'limining tarixi va tasnifi. Poetik nutq.	"She'r ilmi ta'limi"ning Sharq olimlari tomonidan o'rganilishi. Ularning harakati asosida. She'r ilmi ta'limi tarixi va ularning bosqichlari tavsiflanadi. Poetik nutqning o'ziga xos xususiyatlari badiiy nutqdan farqi va uning to'rt unusuri haqida. She'r poetikasi tarixi. Nazmiy nutq	"She'r ilmi ta'limi"ning Sharq olimlari tomonidan o'rganilishi	She'r poetikasini tarixi va tasnifi	Farobiy, Ibn Sino, Beruniylarning she'r va she'rshunoslik haqidagi qarashlari

		unsurlari: poetik sintaksis. Poetik nutqning to'rt unsurlari. Ritmda turoq va vazning mavqeyi. U.To'ychiyevning "O'zbek she'riyatida barmoq tizimi" kitobi. Notekis harakatli ritm. B.Rajabovning "Badiiyatda ritm tabiati" risolasi.			
2	2-mavzu. Ritm nazariyasi.	Ritm nazariyasi, uning davr bilan bog'liqligi va tasniflarilari. Ritm va uning turlari. Ritm – she'r badiiyati asoslaridan biri. Ritm ko'rinishlari. Obraz, timsol, tafsil(detel) va ritmning muvozanati. Notekis harakatli ritm.	Poetik nutq	Ritm nazariyasi, ritm va uning turlari	Poetik nutqning to'rt unsurlari Hamid Olimjon she'riyati asosida o'rganish
3	3-mavzu. Lirik kompozitsiya. She'riy sintaksis poetikasi.	She'r tahlili mezonlari, lirik kompozitsiya. Lirik kompozitsiya va uning to'rt tamoyili, g'azal poetikasi va uning tasnifi. Lirik tarhni uyushtiruvchi unsurlar. She'riy sintaksis poetikasi. Poetik ko'chimlar va poetik sintaksis. Poetik asar badiiyati. Musammatlar poetikasi. She'riyatning muhim xususiyati ko'chimlarda namoyon bo'lishi, uning sodda va murakkab ko'rinishlari	She'r tahlili mezonlari Poetik asar badiiyati	Lirik kompozitsiya. Poetik sintaksis	U. To'ychiyevning "O'zbek she'riyatida barmoq tizimi" kitobi asosida mavzuni o'rganish
4	4-mavzu: Tasviriy vositalar.	Tasviriy-ifodaviy vositalar (omonim, sinonim, antonim, arxaizm, neologizm, jargon, dialekt, professionalism). Nazmiy tahlil haqida qarashlar va uning tasnifi. She'r tahlili mezonlari. Lirik qahramon masalasi.	She'rda lirik qahramon masalasi	Tasviriy-ifodaviy vositalar	B.Rajabovning "Badiiyatda ritm tabiati" risolasi tahlili
5	5-mavzu: Ko'chimlar poetikasi	Nazmiy nutqda so'zning betaraf (o'z ma'no) va ko'chma ma'nolar. Sodda ko'chimlar. Sodda va murakkab ko'chimlarni aniqlash. Barmoq vaznidagi yordamchi elementlar. Intonatsiyon-sintaktik ifoda usullari. So'zning ko'p ma'noligi va ko'chma ma'nolarda ishlatilishi.	Poetik ko'chimlar	Ko'chimlar poetikasi	A.Oripovning she'rlari misolida sodda va murakkab ko'chimlarni aniqlash
6	6-mavzu. O'zbek adabiyotida she'riy tizimlar. Barmoq vazni	She'riy tizimlar haqida ma'lumot. She'riy nutq va nasriy nutqning o'zaro farqlari. She'riy shakl va mazmun. She'riy nutqning asosiy xususiyatlari. Jahon she'rshunosligidagi ba'zi tizimlar. O'zbek adabiyotidagi she'riy tizimlar, metrik, sillabik, sillabir-tonik, tonik tizim, barmoq, aruz, erkin. Barmoq she'r tizimi. Barmoq vazni shahobchalari: erkin vazn, sarbast she'r. She'ring poetik obrazliliigi. She'rda detel, timsol va poetik obrazlar. Xalq poeziyasida barmoq o'lehoivi. Turkiy xalqlar adabiyotida barmoq she'riy tizimi. Barmoq tizimning taraqqiyot bosqichlari. Hozigi o'zbek adabiyotida barmoq she'riy	Jahon she'rshunosligidagi she'riy tizimlar	Barmoq she'r tizimi poetikasi.	T. Boboyevning "She'r ilmi ta'limi" kitobidagi poetik sintaksis mavzusini o'rganish

		tizimi.			
7	7-mavzu. O'zbek adabiyotida erkin vazn	Erkin vazn. Sarbast she'r. Erkin vazn tushunchasi haqida. O'zbek adabiyotida erkin vaznning o'rni. Uning tarixiy ildizlari. She'rda detal, timsol va poetik obrazlar. Tizimning taraqqiyot bosqichlari. Hozigi o'zbek adabiyotida erkin she'riy tizim.	Xalq poeziyasida barmoq o'lchovi. Erkin vazn poetikasi	Erkin she'r. Poetik obrazlar	G'.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'rining ta'limiy tahlili
8	8-mavzu. Aruz she'r tizimi nazariy asoslari.	Aruz she'r tizimi. Aruz she'r tizimidagi bahr tushunchasi. Rukn, hijo, juzv tushunchalariga izoh. Ruboiy vaznlari. Ramal va hazaj bahrlari. Ruknlarning vujudga kelishi. Asliy ruknlar: fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, maf'uvlotu, mafoilatun va mutafoilun.	Aruz she'r tizimi poetikasi. Ruboiy vaznlari	Asliy ruknlar. Mustamal bahrlar	She'rda detal, timsol va poetik obrazlarni Erkin Vohidov she'rlari misolida tahlil qilish
9	9-mavzu. Turli asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar. Mumtoz adabiyotda she'r nav'lari	Turli asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar. Tarmoq ruknlar. Ruknlardan bahrlarning hosil bo'lishi. Rukn va bahr munosabati. Mumtoz adabiyotda adabiy turlar tushunchasi. Mumtoz adabiyotda she'r nav'lari. Baytli she'r shakllari haqida. G'azal, qasida va mustazod janrlari	Mumtoz adabiyotda adabiy turlar she'r nav'lari tushunchasi. Baytli va bandli she'r shakllari	Turli asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar. Musamma t poetikasi	G'azal poetikasini tahlil qilish (Navoiy, Bobur g'azallari misolida)
10	10-mavzu. Ilmi badi' yoki badiiy san'atlar talqini	Badiiy san'atlar va ularning turlari bo'lgan lafziy, ma'naviy va qorishiq san'atlar haqida. Ma'naviy san'atlar: tashbih va uning navlari, mulamma', iyhom, iyhomi zulvujuh, ittifoq, tadbih, faxriya, taqsir, irsoli masal, tashxis, intoq, husni ibtido, tartib, tazod, husni talab, kalomijome', husni ta'lil, iltifot, istiora, talmih, ruju', tazmin, tafre', muqobala, jam'u tafriq, savol-u javob, tansiq as-sifat, ta'riz, tanosib, tajnis va uning navlari, mubolag'a, tajohuli orifona, tahdis, mug'olata, muloqot, laf va nashr, istifhom... Lafziy san'atlar: tajziya, ishtiyoq, tashtir, raddi matla', tasbe, tarse', tadvir, tardi aks, tasdir, mukarrar, takrir, aks, saj', tadjir, ta'did, qaytariq, muvozina, muzoraa, iltizom, nido, hojib, radif... Harfiy san'atlar: kitobat, labtegmas, istixroj, musahhaf, muammo, muvashshah, tavze', qalb.	Qorishiq va harfiy san'atlar	Lafziy va ma'naviy san'atlar	Ruboiy turlarini Bobur ruboiylari asosida o'rganish
11	11-mavzu. Ilmi qofiya haqida ma'lumot. Kichik lirik asarlar poetikasi	qorishiq haqida ma'lumot Mutlaq qofiya va muqayyad qofiya. Qofiya unsurlari. Qofiya san'atlari. Zulqofiyatayn, raddul qofiya, murabba' qofiya, mulamma' qofiya, musalsal qofiya, raviy, ta'sis, daxil qayd, ridf, vasl, huruj, mazid, noira. Kichik lirik asarlar poetikasi. Poetik	Qofiya san'atlari. Kichik lirik asarlar poetikasi	Qofiya turlari va qofiya unsurlari haqida	Qofiya turlari mavzusini mumtoz va zamonaviy she'rlar misolida tahlil qilish

		asarlarning badiiyati va uni tahlil qilish tamoyillari. Kichik lirik asarlar poetikasi. Poetik asarlarning badiiyati va uni tahlil qilish tamoyillari.			
12	12-mavzu. She'riy turkumlar poetikasi	She'riy turkumlar haqida ma'lumot. She'riy turkum va to'plamning o'zaro farqlari. She'riy shakl va mazmun. She'riy turkumning asosiy xususiyatlari. O'zbek adabiyotidagi she'riy turkumlar va ularning janr xususiyatlari. A.Oripov, E.Vohidov, Rauf Parfi she'riy turkumlari.	She'riy turkumlarining janr xususiyatlari	O'zbek lirikasida she'riy turkumlar	A.Oripov, E.Vohidov, Rauf Parfi va Faxriyor she'riy turkumlari tahlili

III. Fanni o'qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- She'rshunoslik asoslarining o'ziga xos xususiyatlari, aruz tarixi haqida, aruz vaznining nazariy asoslari, qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning bir-biridan farqi, rukn va bahr tushunchalari, musta'mal bahrlar; mumtoz she'r shakllari, badiiy san'atlar, qofiya ilmi haqida **bilimga ega bo'lishi**;

- taqti' va uning qoidalari, bahrlar va ularning tarkibiy tuzilishi, bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan bahrlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, turkiy she'riyatda faol qo'llanilgan ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib bahrlarida yozilgan she'rlarning taqti'ni belgilay olish, turli asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, mumtoz aruzshunoslik asoslari; baytli va bandli she'r shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar, mumtoz qofiya turlari haqida bilim va **ko'nikmalarga ega bo'lishi**;

- Mumtoz she'riy asarlar doirasida badiiylilik mohiyati, mumtoz she'r nav'lari, badiiy san'atlar, qofiya va uning turlari haqida umumiy tasavvur hosil qila olishi, mumtoz she'riyatda istifoda etilgan janrlarning badiiyatini belgilay olishi, aruzda yozilgan she'rlarni ifodali o'qiy olish **malakasiga ega bo'lishi zarur**.

IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

V. Kreditlarni olish uchun qo'yiladigan talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

To'plangan reyting ballari asosida talabanning bahosi aniqlanadi.

Asosiy adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2003.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2019.
4. Хализев В. Э. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999.
5. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: O'qituvchi, 1996.

Qo'shimcha adabiyotlar


1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi. 2004.
2. Vahob Rahmonov. She'r san'atlari. – T.: Sharq, 2020.
3. Isoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – T.: Zarqalam, 2006.
4. Hojiaxmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
5. Boltaboyev H. Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – T.: Mumtoz so'z, 2013.

Axborot manbalari

1. <http://natlib.uz> – A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> – O'zbekiston Milliy ensiklopediya
3. <http://ziyouz.uz> – O'zbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> – O'zbekiston milliy ta'lim portal
5. <http://www.infolib.uz> – Pespublika Axborot kutubxona markazi

Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ul:

O.X. Fayzullayeva – Guliston davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori 

Taqrizchilar:

M.R. Mamatqulov – Guliston davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori

O.B. Normurodov – Guliston davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida dotsenti